

**Xalqaro Nordik universitetida mas'ul xodimlarning "Odob-axloq kodeksi"  
hamda Ichki tartib qoidalari, mazmun-mohiyatini tushuntirish bo'yicha  
oshirilgan ishlar to'g'risida  
MA'LUMOTNOMA**

Xalqaro Nordik universitetida sentyabr-oktyabr oylarida Talabalarga "Xalqaro Nordik universiteti" Ustavi, "Odob-axloq kodeksi" hamda Ichki tartib qoidalari, mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida talabalar bilan suhbatlar o'tkazildi. Ushbu tadbirda givoyvandlik, shuningdek, korrupsiya muammolari ham muhokama qilindi.

Talabalarga giyohvandlikning jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'siri, shuningdek, uning yoshlarning hayotini buzishi va o'qish, ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida ma'lumot berildi. Giyohvandlik, shuningdek, yurtimizning tinchligi va barqarorligiga zarar yetkazishi alohida ta'kidlandi.

**Korrupsiya, giyohvandlik** bilan birlgilikda, jamiyatda salbiy ijtimoiy muhitni shakllantirishi mumkin. Bu, yoshlarni nojo'ya ta'sirlar ostida qoldirib, ularning kelajagini xavf ostiga qo'yadi. Talabalarga korrupsiyaning jamiyatdagi ta'siri va uning oldini olish usullari haqida ham ma'lumot berildi.

Talabalarga axloqiy ma'rifat va to'g'ri tafakkurga ega bo'lish, yot mafkuralardan ogoh bo'lish muhimligi, shuningdek, salbiy g'oyalarni rad etish haqida maslahatlar berildi. O'zlarini to'g'ri yo'lga yo'naltirish va zarur ma'lumotlarga ega bo'lish orqali hayotlarini yanada sifatli va ma'noli qilishlari haqida fikrlar bildirildi...

Huquqiy bilimlar oyligi doirasida, talabalar giyohvandlik va korrupsiya muammolari haqida kengroq bilimga ega bo'lishadi. Yoshlarni huquqiy jihatdan ongli, axloqiy jihatdan mas'uliyatli qilish orqali jamiyatda ijobiy o'zgarishlar yaratishga hissa qo'shish maqsad qilinadi.









Ma‘naviy-ma‘rifiy

ishlar bo‘yicha dekan muovini:

X.Mamajanova

